



O'RTA MAKtablarda ADABIYOT DARSALARINI TASHKIL ETISH VA O'QITISHNING UMUMNAZARIY MASALALARI

Ataqulova Nilufar Olim qizi

Аннотация. Mazkur maqolada o'rta maktablarda adabiyot darslarini tashkil etish, uning nazariy asoslari, metodik yondashuvlar, zamonaviy ta'lim talablari hamda o'quvchilarning adabiy-estetik didini shakllantirishdagi o'qituvchining roli haqida so'z yuritiladi..

Калит сўзлар: Методика, ўқитиши, усул, ёндашув, назария ва амалиёт, вазн, тизимлаштириши, креатив.

Kirish: Adabiyot — bu millatning madaniy xotirasi, tarixiy ongini shakllantiruvchi, estetik tarbiyani amalga oshiruvchi muhim fanlardan biridir. O'rta maktabda adabiyot darslarini samarali tashkil etish — bu nafaqat bilim berish, balki shaxs tarbiyasiga xizmat qiladigan murakkab jarayondir. Ushbu maqolada adabiyot o'qitishning nazariy asoslari va amaliy muammolari yoritiladi

Barcha zamonlarda nazariya va uning amaliyoti bilan bog'liq muammolar kishilarni hamisha o'yga toldirib kelgan. Xususan, badiiy adabiyot va uni o'qitish muammolari ham ana shunday dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Umuman, adabiyot fanini o'qitish nazariyasi va amaliyoti masalasi doimiy tadqiq qilinishi talab qilinadigan muammolardandir, sababi, zamon, muhit o'zgaruvchanligi, qolaversa, taraqqiyot omillari adabiyotning nigohida o'ziga xos aks etadi, shu bois, qat'i belgilangan barqaror qoliplar badiiy adabiyotni o'qitish amaliyoti doirasiga to'la ham mos kelavermaydi. Chunonchi, badiiy adabiyot inson ko'ngli bilan shug'ullanuvchi va unga sayqal beruvchi nozik sohadir. Shu jihatidan badiiy adabiyotning o'rganilish obyekti bo'lgan ko'ngil masalasiga o'ta ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lish muhimdir.



Adabiyot o‘qitish metodikasi esa ana shu ko‘ngil tuyg‘ularini tozarishiga ko‘mak beradigan, uni o‘quvchiga iztirob va quvonch tuyg‘ularini yuqtirib, ko‘ngil jilosiga sayqal beradigan sohadir. Chinakam adabiyot mana shunday tug‘yonlarni o‘quvchiga yuqtira olishi bilan boshqa sifatlardan yuqori turadi.

Afsuski, bugungi kun adabiyot bilgichlarini mana shunday zalvorli, ayni damda, mas’uliyatli vazifani to‘laqonli bajara olyapti, deya baralla aytishga kishi biroz istihola qiladi. Modomiki, adabiyot tarbiyachisi adabiyot va o‘quvchi o‘rtasidagi muhim ko‘prik ekan, bu masala kechiktirib bo‘lmaydigan muammo ekanligini ham unutmaslik lozim. Adabiyot o‘qitish ilmida e’tibor qilishimiz kerak bo‘lgan dastlabki jihatlardan biri – adabiyot o‘qitish metodikasi va adabiyot darsligini yaratish amaliyoti o‘rtasiga chegara qo‘yishdir. Ko‘p zamonlardan buyon ushbu ikki tarmoq aralash holatda iste’mol maydonida qo‘llanilib keldi. Xususan, tadqiqotchi olimlar mana shu jihatning asl negizi atrofida tushunib-tushunmay aylanadilar-u, ammo shu muammoga sabab bo‘lgan omillarga ko‘p hollarda befarq bo‘ladilar. Aytaylik, so‘nggi o‘n yilliklarda adabiyot o‘qitish borasida turli qarashlar, yondashuvlar, uslublar ko‘plab almashdi, xususan, bu holat darsliklarda ham o‘z ifodasini topmay qolmadi.

Ma’lumki, adabiyot o‘qitish metodikasi badiiy mohiyatni chuqur va teran anglash sirlarini o‘rgatadigan, uning nodir sifatlarini bor ranglarda ochib berishga ko‘mak beradigan turli xil uslub va metodlar ilmi ustida ish olib boradi. Shu nuqtada uning vazifasi boshqa tarmoq, ya’ni, adabiyot darsliklarini yaratish amaliyoti bilan bog‘lanib ketadi. E’tibor qilish kerak bo‘lgan jihat – bu ikki tarmoqni bir-biriga qo‘sib yubormaslik, birining vazifasini boshqasining yelkasiga ortmaslik, uning vositasida o‘zining jozibasini ifodalamasligi kerak. Aytaylik, yangi yaratilgan darsliklardagi badiiy parchalarda adabiyot o‘qitish ilmining aralashuvi sezilarli darajada ko‘zga tashlanadi.



Xususan, yuqoridagi kabi parchalarning mantiqiy bo‘laklangan holatlarda berilib, ularning orasiga o‘quvchini diqqat qilishi kerak bo‘lgan jihatlarni nazardan chetda qoldirmaslik “g‘am”ini o‘ylab ogohlantiruvchi chaqiriqlarning keltirilishi ikkinchi tarmoqning o‘z tamoyillarini erkin ifoda etish yo‘siniga jiddiy ta’sir o‘tkazmay qolmaydi. Shu o‘rinda bu oqibat o‘quvchining ham badiiy olamni kashf etish qobiliyatlarining o‘tmaslashishi, dangasalashishiga yaxshigina sabab bo‘ladi. Qolaversa, har ikki tarmoqning o‘rganish o’bektlari tobora birgalashib, sohaning ortga tomon ilgarilashiga sabab bo‘ladi. U holda adabiyot darsliklarini yaratish amaliyotining qiladigan ishlari nimalardan iborat bo‘ladi? Ularning ishi borliq badiiy olamining eng sara, eng go‘zal, eng muhim namunalarini tanlab, ularni o‘quvchining imkoniyatlari darajasida tizimlashtirish va o‘qishligi qulay holatda dasrliklarga jamlashdan iborat bo‘ladi. Afsuski, biz kecha yaratilgan yangi darsliklarda ham metodika ilmining darslik yaratish amaliyotiga aralashuvi holatlarini ko‘p uchratyapmiz. Agar bu tutum to‘g‘ri bo‘lsa, u holda adabiyot fani o‘qituvchisining qiladigan ishi nimalardan iborat bo‘ladi, degan jo‘yali savol tug‘iladi. Axir, o‘qituvchining vazifasi berilgan badiiy yaratiqni bola mustaqil o‘qish jarayonida ilg‘anmagan jihatlarni ilg‘atish, uni muallif darajasida anglatish emasmi? Qolaversa, darsliklardagi bu kabi “mayoq”larning o‘rni o‘qituvchi uchun bolaning 678 darsligida aks etishi nechog‘lik o‘rinli bo‘ladi, ha, aytaylik, bu izohlar o‘quvchi uchun yordam bo‘lsa, u holda adabiyot fani o‘qituvchisi nima ish qiladi? Bu kabi savollarning keti uzilmaydi, biri ortidan ikkinchisining xatoliklari ergashib chiqib kelaveradi, ammo, bizda buni to‘g‘ri tizimlashtirish uchun hammaga ochiq ko‘rinib turadigan asoslar bor. Masalan, bola darslik orqali badiiy asar bilan tanishadi, tahlil qiladi, kemtik qismi esa o‘qituvchi orqali to‘ldiriladi. O‘qituvchilar esa o‘zlarini uchun yaratilgan darslik asosida dars jarayoniga tayyorlanadi, berilgan darslik yo‘rig‘i kamlik qilgan hollarda, u to‘g‘ridan to‘g‘ri metodik yordam qo‘lini cho‘zadigan qo‘llanma, tavsiya, metodik adabiyotlar, borinki, metod va usullar jamlangan adabiyotlar orqali o‘z tajribasini boyitadi. Adabiyot o‘qitish metodikasi ilmi esa



mana shu tavsiyalarni beradigan yo‘riqlar yaratadi va shu bilan bиргаликда, tajriba sinovlari tadqiqini ham statistik hisobotini qo‘llанманинг ilova qismida bayon qiladi.

Darslik yaratishda yana bir jihatga e’tibor qaratish muhim deb hisoblaymiz: mumtoz she’riyatni o‘qitish masalasida aruz vazni ilmiga oid nazariy yondashuvlar metodikasini yangilash muammosi ham dolzarbdir. Buni darslikdan surib chiqarish emas, oson o‘rganish yo‘llarini izlashga ko‘mak beradigan kreativ ifoda usulini yaratish lozim. Chunki, bu masala nafaqat o‘quvchini, hatto o‘qituvchini diqqat torttiradigan noqulayliklarga to‘la. Vazn, taqte, qofiya ilmi, badiiy san’atlar bilan ishslash bo‘yicha dastlab, bolani qochirmaydigan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish yaxshi samara beradi, bir muddat amaliy tajriba sinovlarida o‘rganilib, ijobiy natijaga erishilsa, keyin darslikka kiritilishi to‘g‘iroq bo‘ladi.

Bu borada mualliflarning yondashuviga diqqat qaratadigan bo‘lsak, ular g‘azallarni o‘rganishda ikki ijodkor (Navoiy va Nodira) g‘azalidan bir bayti, maqta’ tanlanib, qay biri qay ijodkorniki ekanligini topishni bolalarga topshiriq sifatida berishni tavsiya etadi(Husanboyeva, 2022, 127-bet). Bu 683 kabi yondashuv bolani o‘quvchining badiiy saviyasini o‘shtira oladi, deb aytish qiyin. Axir o‘quvchi g‘azalning tarkibiy tuzulishi borasida ilmiy dunyoqarashga ega bo‘lmay turib, uning mazmunini qanday sharhlaydi, qolaversa, mumtoz she’riyatning jozibasi undagi badiiy tasvir vositalari, qofiya va vazndagi qolip bilan belgilanishi hech kimga sir emas. Bu holatda o‘quvchi bu metodga faqatgina tavakkalchilik orqali javob qaytara oladi, xolos.

Xulosa qilib aytganda, darslik yaratish amaliyotining poydevori bo‘lgan adabiyot o‘qitish metodikasi sohasida talaygina oqsashlar mavjud. Nazariya ilmi tarkibini bugungi kun nuqtai nazari va mакtab amaliyoti bilan bog‘liq holda boyitish badiiy asarni teran anglashga qaratilgan dastlabki qadam deyish mumkin. Bu borada



adabiyot o‘qitish metodikasi va adabiyot darsliklarini yaratish metodikasi amaliyoti orasida ma’lum chegara bo‘lishi eng zaruriy ehtiyojdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A’zamova D. “Adabiyot o‘qitish metodikasi”. – T.: O‘qituvchi, 2015.
2. G‘ofurov O. “Zamonaviy adabiyot ta’limi”. – Samarqand, 2021.
3. Vazirlar Mahkamasining umumta’lim mакtablarida adabiyot fanini o‘qitish bo‘yicha qarorlari.
4. Internet manbalari: edu.uz, ziyonet.uz, pedagog.uz
5. Аҳмедов С ва бошқалар. Адабиёт.(2020). Умумий ўрта таълим макталарининг 5- синфи учун дасрлик. – Тошкент.
6. Тўхлиев Б.(2010). Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент, Янги аср авлоди.
7. Йўлдошев К. (2022). Ҳамид Олимжон ҳаёт ва ижод йўли. Методик қўлланма. – Тошкент, Bookmany print